



IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ (NOGIRON) MAHKUMLARNING JAZONI O'TAH SHARTLARI VA ULARNI SAQLASH SHAROITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sobirova Nafosat Gulmirzo qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi,
leytenant

Sattarov Jumadilla Bekseit o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15295602>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 28th April 2025

KEYWORDS

BMT, nogiron mahkum, nogiron huqulari, nogironlarning toifalari, TMEK, nogiron mahkumlarning jazoni o'tash shartlariva saqlash sharoiti.

ABSTRACT

muallif mazkur maqolada nogironlik tushunchasi, nogiron mahkumlar huquqlari, ularning toifalari, dinamikasi, jazoni o'tashning o'ziga xos xususiyatlari va saqlash sharoitining mazmun mohiyatini yoritib bergan.

Mustaqillikka yerishganimizdan so'ng, so'ngi yillarda nogiron shaxslarni qo'llabquvvatlashga bo'lgan e'tibor sezilarli ravishda ortdi.¹ Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 7 iyundagi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006 yil 13 dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'RQ-695-son² qonuni qabul qilindi.

O'zbekistonda nogironlik Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi. Nogironlik mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab quyidagi uch guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh, mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqalarning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar;

Ikkinchi guruh, mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qati nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar;

Uchinchi guruh, mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi.

Nogironlikning o'ziga xos turlari ham mavjud. Ular quyidagilardir:

Jismoniy nogironlik (masalan, qo'l-oyoqlarning yo'qligi, paralizlar, murakkab yaralar va hokazo).

Ruhiiy (psixologik) nogironlik (psixik kasalliklar, depressiya, shizofreniya, autizm va boshqalar).

Ko'z va eshitish uzilishlari (ko'zlar yoki eshitish yo'nalishlarida kamchiliklar).

Jismoniy nogironlik — bu insonning fizik funksiyalarining cheklanganligi yoki uzilishini anglatadi, bu insonning har qanday kundalik faoliyatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Jismoniy nogironlik turli xil sabablar tufayli paydo bo'lishi mumkin, jumladan, travmalar,

¹ <https://doi.org/10.5281/zenodo.11084932>

² Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги "Ногиронлар хуқуқлари тўғрисидаги конвенцияни (Нью-Йорк, 2006 йил 13 декабрь) ратификация қилиш ҳақида"ги ЎРҚ-695-сон1 қонуни // <https://lex.uz/docs/5447413> (электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 07.02.2024 й.).

kasalliklar, tug'ma va orttirilgan muammolar. Jismoniy nogironlik odamning harakatlari, holatlarini o'zgartirish va og'irligini ta'minlashga bo'lgan qobiliyatlarini cheklaydi, bu esa ijtimoiy hayotda, ishda va turmushda muammolarga olib keladi.

Ruhiy (psixologik) nogironlik — bu insonning psixoemotsional holati, hissiy yoki intellektual qobiliyatlarining cheklanishi yoki yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan holat. Ruhiiy nogironlik turli kasalliklar, travmalar yoki tug'ma anomaliyalar tufayli rivojlanishi mumkin. Bu turdagi nogironlik insonning kundalik hayotiga, ijtimoiy aloqalariga, ish faoliyatiga va ma'naviy xolatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'z va eshitish uzilishlari — insonning hissiyot a'zolaridan biri bo'lgan ko'rish va eshitish qobiliyatlarining buzilishi, yoki yo'qolishi. Bu turdagi nogironlik turli omillar tufayli rivojlanishi mumkin, masalan, tug'ma yoki orttirilgan kasalliklar, travmalar, yoki yoshga bog'liq uzilishlar. Ko'z va eshitish uzilishlari insonning kundalik hayotida, ijtimoiy aloqalarida, mehnat faoliyatida va o'qishda muhim rol o'ynagan qobiliyatlarni cheklaydi.

O'zbekistonda ruxiy xasta shaxslar javobgarlikka tortilmaydi. Sababi O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida voyaga yetgan, aqli raso, jismoniy shaxslargina javobgarlikka tortilishi mumkligi keltirilgan.³

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning rasman e'lon qilingan soni aholining 2,1 foizini tashkil qiladi. 2020 yil boshida O'zbekistonda 693 900 nafar nogironligi bo'lgan shaxs (295 500 nafari ayol, 398 400 nafari erkak), jumladan 111 300 nafari 16 yoshgacha bo'lganlar (48 800 nafari qiz va 62 500 nafari o'g'il bolalar) pensiya va ijtimoiy nafaqa olgan⁴. Butun dunyo aholisining taxminan 15 foizi nogironlikning u yoki bu shakliga ega ekanligini hisobga olsak, ehtimol, bu raqam yuqoriroq bo'lishi mumkin.

2022 yilda O'zbekistonda qamoqxonada bo'lganlar soni taxminan 25,000-30,000 ga yaqin edi. Lekin ularning soni doimo o'zgarib boradi. Buning sababi, jinoyat sodir yetib aybi isbotlanganlarning ko'pchiligi sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilinadi va JIEMga yuboriladi. Yoki jazo muddatini o'tab bo'lgan mahkumlar JIEMdan ozod qilinadi. Bulardan biz penitensiar tizimda olib qaraydigan bo'lsak nogiron mahkumlar O'zbekistonning penitensiar tizimida kamida 2–3 foizni tashkil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu aholi toifasi eng oson hisobga olinishi mumkin bo'lgan toifalardan biri emas.

Maxsus tadqiqotlar va statistikalarga ko'ra, qamoqxonadagi mahkumlarning bir qismi nogiron bo'lib, ushbu raqam O'zbekistonda ayrim hisobotlarda 2-3 foiz atrofida ko'rsatilgan. Bu 600–900 nafar davlat tasdiqlagan nogiron mahkumlarga to'g'ri kelishi mumkin, ammo aniq raqamlar har yili o'zgarib turadi.

Nogironlar uchun tibbiy yordamning yetarli darajada ta'minlanmasligi butun dunyo bo'yicha, shu jumladan, O'zbekistondagi qamoqxonalarda ham kuzatiladi. Kamsitish va maxsus tibbiy rehabilitatsiya xizmatlarining yetishmasligi nogironlar uchun aniq xatarni tug'diradi. Aksariyat qamoqxonalarda tibbiy yordamning mavjud bo'lishi, jismoniy va psixologik yordamlarning chegaralanganligi tufayli nogironlar noqulay sharoitda yashashga majbur bo'ladilar.

Qamoqxonalarda nogironlar uchun panduslar va moslashtirilgan joylar juda kam. Bu nogironlarning harakatlanishini ancha cheklaydi. Infratuzilma ichida nogironlar uchun erkin harakatlanishga moslashtirilgan xo'jalik xabari yoki imkoniyatlar mavjud emas.

Biz penitensiar tizimda xorijiy tajribalardan keng foydalanishimiz zarur. Masalan penitensiar tizimi juda yaxshi rivojlangan dunyonin gegemon davlatlarining penitensiar tizimini o'rganib, ulardan andozalar olib o'zimizda joriy qilsak maqsadga muvofiq buladi.

Kanada va AQSh nogironlar uchun ijtimoiy integratsiya va huquqiy himoyani ta'minlash bo'yicha muhim islohotlarni amalga oshirgan davlatlardir. Bu mamlakatlar nogironlarning

³ 1994-йил 22-сентябр Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 17 февралдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни ҳамда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-74-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5865484> (электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 07.02.2024 й.).

huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlash va diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun bir qator huquqiy hujjatlar, dasturlar va amaliyotlarni ishlab chiqishgan. Kanada va AQSh tajribasi nogironlarning huquqlarini ta'minlash va ularni jamiyatga integratsiya qilishdagi muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi.

1990 yilda qabul qilingan "**Americans with Disabilities Act**" (**ADA**) AQShda nogironlarning huquqlari bo'yicha eng muhim va islohotlar kiritilgan qonundir. Bu qonun nogironlarga nisbatan diskriminatsiyani taqiqlaydi va ularning ijtimoiy hayotga, ishga, ta'limga, transportga va boshqa ijtimoiy xizmatlarga kirishini ta'minlaydi. ADA, shuningdek, nogironlarning mehnat bozoriga kirishini osonlashtiradi, ularning huquqlarini himoya qiladi va ish beruvchilarga nogironlarga moslashuvchi ish shartlarini yaratishga majburlaydi⁵.

AQShdagi **Rehabilitation Act of 1973**, aniqroq **Section 504** nogironlar uchun diskriminatsiyani taqiqlaydi va ularga davlat xizmatlariga kirishda teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu qonun ham jamoat tashkilotlariga, ham xususiy sektorga nogironlar uchun moslashuvchi sharoitlarni yaratishni talab qiladi.⁶

The Individuals with Disabilities Education Act (IDEA) 1975 yilda qabul qilingan va har bir nogiron bola uchun moslashuvchi ta'limni ta'minlashga qaratilgan qonundir. Bu qonun nogiron bolalarga maxsus ta'lim vositalari, o'quvchilarni individual o'qitish plani (IEP) va boshqa yordamlar taqdim etilishini kafolatlaydi.⁷

AQShdagi qamoqxonalarda nogironlar uchun tibbiy yordam, rehabilitatsiya, psixoterapiya va psixologik yordam ko'rsatiladi. Qamoqxonalarda tibbiy xizmatlar, jumladan, nogironlar uchun maxsus o'tkazilgan tibbiy tekshiruvlar, rehabilitatsiya kurslari va psixo-sotsial yordam dasturlari mavjud. Masalan, qamoqxona tibbiy muassasalari nogironlarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan, agar ular sog'lom emas yoki psixo-emotsional muammolarga ega bo'lsa, ular uchun individual rehabilitatsiya dasturlari tuziladi.

Kanadada nogironlar uchun turli ijtimoiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari mavjud. Masalan, **Disability Tax Credit (DTC)**, nogironlar uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy yordamni taqdim etadi. Bu dasturlar nogironlarga moliyaviy yordam berish, ularning hayot darajasini yaxshilash va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, nogironlarga ish bilan ta'minlashga yordam berish uchun maxsus dasturlar va ijtimoiy yordamlar ham mavjud.

Kanadada nogironlar uchun amalga oshirilayotgan siyosatlar va qonunlar muvaffaqiyatli tajriba hisoblanadi. Davlatning nogironlar haqlariga oid qonunlari, dasturlari va ishlab chiqilgan mexanizmlari ularning jamiyatga integratsiyasini osonlashtirish, ijtimoiy hayotda tenglikni ta'minlash va iqtisodiy mustaqillikka yo'naltirilgan. Kanadadagi ishlangan strategik rejalar va qonunlar nogironlarga jamiyatda o'z o'rnini topish, barqaror hayot kechirish uchun zarur sharoitlar yaratishga intiladi.

3-dekabr' xalqaro nogironliklari bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash va ularning manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu 1992 yilda BMT umumiy assambleyasi tomonidan belgilangan. Shuningdek, bu kunda turli sohalardagi tadbirlar, muhokamalar va kamsitishga qarshi kampaniyalar o'tkaziladi.

3-dekabr' xalqaro nogironlar kunini O'zbekistonda JIEMlarda o'tkazish, juda muhim ijtimoiy tadbir bo'lib, jamiyatdagi nogironlarga nisbatan hissiyotlar va munosabatlarni o'zgartirishga yo'naltirilgan bir qator ijtimoiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bu qaror, qamoqxonalardagi shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularga yordam ko'rsatish va ularning jamiyatga qayta integratsiya qilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qadam bo'ladi.

Bu yesa o'z navbatida quidagi natijalarni beradi:

⁵ 1990 йилда қабул қилинган ADA.

⁶ AQShdagi Rehabilitation Act of 1973-йил қабул қилинган.

⁷ 1975 йилда қабул қилинган The Individuals with Disabilities Education Act (IDEA).

1. JIEMlarda nogironlar uchun maxsus sharoitlar va yordam berish maqsadida kun o'tkazish ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim tadbir bo'ladi. Bunday tadbirlar, JIEMlardagi nogironlarga yordam ko'rsatish va ularning jamiyatga qayta integratsiyasini osonlashtirishga yordam beradi.

2.3-dekabr kuni JIEMlarda nogironlik haqida maxsus seminarlar, ma'ruzalar, treninglar va video materiallar ko'rsatish orqali JIEMlardagi mahkumlarning nogironlar haqidagi bilimlarini oshirish mumkin. Bu, ularning og'ir vaziyatlarga tushgan odamlarga nisbatan hissiyotlarini o'zgartirish va ularga bo'lgan munosabatni yaxshilashga qaratilgan bo'lar edi.

3. JIEMlarda nogironlarga psixologik yordam ko'rsatish, ularning ma'naviy va psixo-emotsional holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tashkil etilishi mumkin. Bu, ularning o'z-o'zini qadrlashi va jamiyatga qo'shilish uchun motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

4. JIEMlarda shaxslarga nogironlarga yordam berish, ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish va jamiyatga qayta integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratish. Bunday kunlarni o'tkazish, ularga ijtimoiy axborotni qabul qilish, JIEMlardan tashqaridagi hayotga qaytishda kerakli ko'nikmalarni qo'llashga yordam beradi.

Agar 3-dekabr kuni O'zbekistonda JIEMlarda o'tkazilsa, bu nogironlarga nisbatan jamiyatdagi munosabatni o'zgartirish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularning qayta jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan muhim bir qadam bo'ladi. Jamiyatning har bir a'zosi, shu jumladan JIEMlardagi shaxslar, nogironlar va ularning huquqlariga hurmat bilan yondashishni o'rganishlari muhim.

Har bir insonning qadri va hurmati barcha sharoitlarda birday bo'lishi kerak, shu jumladan nogironlar uchun ham. Nogiron bo'lish, insonning insoniyligini yoki qadr-qimmatini kamaytirmaydi. Ularning ehtiyojlari va huquqlari jamiyatda alohida e'tiborga muhtoj. Nogiron shaxslar ham boshqa barcha insonlar kabi muhabbatga, ehtiromga, yordamga va imkoniyatlarga loyiqdir.

Nogiron shaxslarning har birining hayoti, umidlari, orzu-istaklari va ijtimoiy faoliyati to'laqonli hayot sari yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ularning jamiyatdagi o'rnini ham shunday. Bunday shaxslar ham ijtimoiy faoliyatda, mehnatda, oilaviy munosabatlarda va boshqa sohalarda jamiyatga faol hissa qo'shishlari mumkin. Shuning uchun ularga barcha insonlar kabi teng imkoniyatlar, muhabbat va hurmat kerak.

Shaxs nogiron bo'lsa ham, u ham insondir va uning qadri jamiyatda hech qachon kamaymasligi kerak. Nogiron shaxslar bilan aloqada bo'lishda, ularni ehtiyotkorlik, yordam va hurmat bilan qarash jamiyatning rivojlanishida muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11084932>
2. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияни (Ньюйорк, 2006 йил 13 декабрь) ратификация қилиш ҳақида”ги ЎРҚ-695-сон1 қонуни // <https://lex.uz/docs/5447413> (электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 07.02.2024 й.).
3. 1994-йил 22-сентябр Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 17 февралдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни ҳамда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-74-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5865484> (электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 07.02.2024 й.).
5. 1990 йилда қабул қилинган ADA.
6. АҚШдаги **Rehabilitation Act of 1973-йил қабул қилинган.**
7. 1975 йилда қабул қилинган **The Individuals with Disabilities Education Act (IDEA).**

8. Qushboqov S. X. Usipbekov NJ Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 12. – С. 179-182.
9. Qushboqov S., Tilabov S. Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 18. – С. 67-69.
10. Кушбоцов Ш. Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 114-117.
11. Охунов З., Кушбоцов Ш. ТТСЭ (2022). Хуцубзарликларни олдини олишга оид айрим мулох, азалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – T. 2. – №. 11. – С. 34-39.
12. Qushboqov S. Isroilov D. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida adliya organlari bilan xamkorligi tushunchasi //Академические исследования в современной науке. – 2024. – T. 3. – №. 23. – С. 96-103.
13. Qodirjonovich J. Z., O'G'Li Q. S. X. Bir guruh shaxslar tomonidan axborot texnologiyalardan foydalanib sodir etilgan firibgarlik va o 'g 'rilik jinoyatlarining sodir etish usullari va ularni tergov qilishga oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – T. 4. – №. 5. – С. 137-144.
14. Qushboqov S. Mamatova D. Yangi O'zbekistonda huquqbuzarlik profilaktikasining o'rni //current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 37-39.
15. Qushboqov S. Zamonov X. Shaxsning hayoti va sogligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning oziga xos xususiyatlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 79-84.
16. Кушбоқов Ш С. М. Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ўрни //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 13. – С. 73-76.
17. Охунов З. М., Кушбоқов Ш. Х. Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 34-39.
18. Кушбоқов Ш Т. Ж. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми ҳуқуқий тартибга солиш истиқболи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 49-55.
19. Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларининг юридик шахс сифатидаги тушунчасининг таснифи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 58-63.
20. Алтмишев Т., Кушбоцов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумларнинг сайловга оид хуцубзарлини таъминлаш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – T. 3. – С. 112-114.
21. Кушбоқов Ш Т. Э. Жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган айрим тоифадаги маҳкумлар устидан маъмурий назорат ўрнатиш тартиби //Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 35-44.
22. Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – T. 1. – №. 27. – С. 16-20.
23. Рустамов С. Кушбоқов Ш. Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясининг жазони ижро этиш департаменти фаолиятидаги ўрни //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – T. 2. – С. 10.
24. Аумаханович, Kalauov Saydulla, Allayarov Nurmanbet Urazimbetovich, and Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li. "Yo'l-transport hodisalarini oldini olish faoliyatini

takomillashtirish." *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.1 (2024): 157-160.

25. Qushboqov S., Xalilov J. Ma'muriy Jazo Tushunchasi, Maqsadi Va Turlarining Mazmun-Mohiyati //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 7-12.

26. Qushboqov S., Jumashev O. Huquqbuzarliklar profilaktikasida deputatlik va parlament nazoratining o'рни //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 54-56.

27. Qushboqov S. Narsani musodara qilish jazosini ijro etishning ilmiy-nazariy tahlili //Развитие педагогических технологий в современных науках. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 79-83.

28. Кушбоков Ш. Сущность понятия и виды административного взыскания //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 6. – С. 418-423.

29. Кушбоков Ш. Научно-теоретический анализ исполнения наказания в виде возмездного изъятия предмета //Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 1/S. – С. 87-90.

